

# XOTIN – QIZLARNING JAMIYATNI IJTIMOYIY RIVOJLANTIRISHDAGI O’RNI

**Xasanova Gulnoza Ilhom qizi**

**JDPI, Maktabgacha ta’lim metodikasi**

**kafedrasi o’qituvchisi**

**Abiyerova Durdona**

**Maktabgacha ta’lim yo’nalishi talabasi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada jamiyatni ijtimoiy rivojlantirishda xotin-qizlarning faolligini oshirish yuzasidan fikr yuritilgan.

**Kalit so’zlar:** ayollar faolligi, ijtimoiylashuv, intellektual salohiyat, oilaviy munosabatlar, hayotiy tajriba, ijtimoiy rivojlanish, oilaviy muhit.

**Аннотация:** Данная статья посвящена расширению участия женщин в социальном развитии общества.

**Ключевые слова:** женский активизм, социализация, интеллектуальный потенциал, семейные отношения, жизненный опыт, социальное развитие, семейная среда.

**Annotation:** This article focuses on increasing the participation of women in the social development of society.

**Keywords:** women's activism, socialization, intellectual potential, family relationships, life experience, social development, family environment.

## **KIRISH**

Mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, huquq va qonuniy manfaatlariga so’zsiz rioya qilinishini ta’minlash, onalik va bolalikni har tomonlama qo’llab-quvvatlash, ularning turli soha va tarmoqlarda o’z qobiliyat va imkoniyatlarini ro’yobga chiqarishi uchun shart-sharoit yaratib berish, shuningdek, oila institutini mustahkamlash borasida keng ko’lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 fevraldagi “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2019 yil 7 martdagi “Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorlari va yana ko‘plab normativ hujjatlar orqali mamlakatimizda ayollar masalalari bilan bog‘liq ijobiy islohotlar yangi bosqichda takomillashtirilib borilmoqda. O‘zbekistonda sog‘lom avlodni tarbiyalash, oilani mustahkamlash, ayollarni e‘zozlash, onalik va bolalikni muhofaza etishdek insoniy burchlarni ado etish borasida bir qator amaliy dasturlar ishlab chiqilmoqda va hayotga tatbiq etilmoqda. Hozirgi kunda mamlakatimizda ayollar sog‘liqni saqlash, ta‘lim tizimida, davlat boshqaruvining turli yo‘nalishlarida, tadbirkorlik faoliyatida faollik ko‘rsatmoqda. So‘nggi yillarda ayollarning ta‘limi, mutaxassislik va ilmiy salohiyatini o‘stirish uchun barcha lozim choralar davlat tomonidan kafolatlanganligi O‘zbekistonda ayollar faolligini oshirishda keng islohotlar olib borilayotganligidan darak beradi.

## **NATIJALAR**

Bugun respublikamizda ayolga, oilaga hurmat davlat siyosati darajaga ko‘tarilib, qonunchilik normalarining asosiy qoidalari sifatida e‘tirof etilyapti. Ushbu normalarda ayolning jamiyatda va oilada tutgan o‘rni, huquq va majburiyatlari sharqona turmush tarzi, oila hayotining ma‘naviy, axloqiy, iqtisodiy va huquqiy normalarini inobatga olgan holda belgilab berilgan. Jumladan, O‘zbekistonda Xotin-qizlar qo‘mitasining jamiyat hayotidagi faolligini oshirish, xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish maqsadida qo‘mita faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari belgilab berildi. O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi va uning hududiy bo‘linmalarining yangilangan tuzilmalari tasdiqlandi. Bundan tashqari oilaviy qadriyatlar va an‘analar yo‘nalishida fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlarni olib borish maqsadida Respublika “Oila” ilmiy-amaliy markazi negizida Vazirlar

Mahkamasi huzurida alohida “Oila” ilmiy-amaliy tadqiqot markazi va uning hududiy bo‘linmalari tashkil etildi. Oilaning reproduktiv salomatligi va demografik rivojlanishi, zamonaviy namunali oilaning mezonlarini belgilash, oila-nikoh munosabatlari sohasida amaliyotni o‘rganish va tajriba almashish borasida xalqaro va xorijiy tashkilotlar, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlikni amalga oshirish bilan bir qatorda “Sog‘lom oila – sog‘lom jamiyat” konseptual g‘oyasi hamda “Oila jamiyat va davlat himoyasida” konstitutsiyaviy prinsipini keng targ‘ib etish va jamiyatga singdirish “Oila” markazining asosiy vazifalari qatoridan joy oldi. Shu bilan birga, Xotin-qizlar qo‘mitasi hamda “Oila” markazining mas‘uliyatini yanada oshirish, vakolatlari doirasini aniq belgilab olish maqsadida qo‘mita hamda markaz, ularning hududiy bo‘linmalari rahbariyatining xotin-qizlar va oila masalalarini hal etishdagi shaxsiy javobgarlik chegaralari belgilab qo‘yildi. Jamiyat ijtimoiy rivojlanishida xotin qizlarning ahamiyatini va faolligini oshirish yuzasidan, va oila va xotin-qizlar masalalarida tizimli hamkorlikni ta‘minlash maqsadida FHDYO organi, “Oila” markazining tuman (shahar) bo‘limi hamda xotin-qizlar va oila masalalari bo‘yicha boshqa tuzilmalar faoliyatini nazorat qilish va muvofiqlashtirish yuzasidan ma‘ullik tuman hokimi o‘rinbosari – xotin-qizlar qo‘mitasi raisi zimmasiga yuklatildi. O‘zbekiston Respublikasida Xotin-qizlar qo‘mitasi, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi, “Tadbirkor ayol” uyushmasining oila va xotin-qizlar masalalariga oid faolligini e‘tirof etilgan. Ta‘kidlash joizki, ushbu jamoat fondining asosiy vazifasi og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlar va oilalarga, nogironligi bo‘lgan ayollarga moddiy yordam ko‘rsatish, xotin-qizlarning tadbirkorlik tashabbuslariga ko‘maklashish hamda jamiyat ijtimoiy hayotida ayollarning faolligini oshirish hisoblanadi.

## **MUHOKAMA**

Bugungi kunda O‘zbekistonda ayollarning intellektual salohiyati anchagina yuqori bo‘lib, ana shu intellektual boylikdan jamiyat taraqqiyotida samarali foydalanish hamda ayollarni islohotlar jarayonlariga, ya‘ni jamiyatning yangilanish jarayonlariga safarbar etish davlatimiz tomonidan keng amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston sharoitida ayollar tafakkurida tolerant tafakkurni shakllantirish, mafkuraviy uyg'oqlik va sezgirlikni ular ongiga singdirish fuqarolik jamiyatining asoslarini kuchaytirish omillaridan biridir. Nima uchun ayol bag'rikeng, tafakkuri uyg'oq mushohadali, siyosiy jihatdan ongli bo'lishi lozim? Chunki ayol farzand tarbiyasiga mas'ul shaxs bo'lib, onaning tarbiyasi farzandning tafakkuri shakllanishiga xizmat qiladi. Ana shu tafakkurning to'g'ri tanlanishi davlat taraqqiyotiga ta'sir qiladi. Shu boisdan ham, bugungi kunda ayolning jamiyat ijtimoiy hayotdagi faolligini oshirish davr talabidir.

## **XULOSA**

Bugungi kunda jamiyatimizda ayollarni ulug'lash, davlat tomonidan ularning ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va ma'naviy manfaatlarini himoya qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jamiyatni demokratlashtirish davrida xotin- qizlarga bo'lgan munosabat va ularning hayotiy tajribasi, intellektual salohiyati va imkoniyatlaridan bunyod etilayotgan jamiyat rivoji uchun foydalanish ana shu qurilayotgan davlatchilik asoslarining liberalligi va ilg'orligidan dalolat beradi.

## **REFERENCE**

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

Xasanova, G. (2021). MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALARGA AQLIY TARBIYA BERISHNI TO'G'RI TASHKIL ETISHNING MAZMUNI. *MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALARGA AQLIY TARBIYA BERISHNI TO'G'RI TASHKIL ETISHNING MAZMUNI. Maktabgacha ta'lim jurnali*, 4(Preschool education journal). Retrieved from <https://presedu.jspi.uz/index.php/presedu/article/view/4355>

Олий таълим муассасалари педагогларининг креатив қобилиятларини ривожлантиришнинг мазмуни Г Хасанова - Academic research in educational sciences, 2021

Цитируется: 17 Похожие статьи Все версии статьи (3)

Хасанова, Г. И. Қ. (2021). Болага йўналтирилган таълимни амалга оширишда тарбиячининг касбий компетентсиясининг ахамияти. *Academic research in educational sciences*, 2(9), 1051-1056.

Xasanova, G. (2021). МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNI NUTQINI GRAMMATIK TUZILISHINI SHAKLLANTIRISH. *Мақтабгача таълим журнали*, 4(Preschool education journal). Retrieved from <https://presedu.jspi.uz/index.php/presedu/article/view/4430>

Gulnoza Xasanova, [МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARDA BILIM, KO'NIKMA VA MALAKALARNI SHAKLLANTIRISH](#), *Мақтабгача таълим журнали*: Vol. 4 No. Preschool education journal (2021): [Preschool education journal](#)

Gulnoza Xasanova, [OILADA BOLALARGA MILLIY TARBIYA BERISHDA SHARQ MUTAFAKKIRLARINING QARASHLARI](#), *Мақтабгача таълим журнали*: Vol. 3 No. Preschool education journal (2021)

Gulnoza Xasanova, [TARBIYA TUSHUNCHASI](#), *Мақтабгача таълим журнали*: Vol. 4 No. Preschool education journal (2021): [Preschool education journal](#)

Gulnoza Xasanova, [SHAXS SHAKLLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR](#), *Мақтабгача таълим журнали*: Vol. 3 No. Preschool education journal (2021)

Gulnoza Xasanova, [МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARGA QO'L MEKNATI ORQALI AQLIY TARBIYA BERISHNING MAZMUNI](#), *Мақтабгача таълим журнали*: Vol. 4 No. Preschool education journal (2021): [Preschool education journal](#)

Gulnoza Xasanova, [МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALAR KITOVXONLIGINI SHAKLLANTIRISHNING MAZMUNI](#), *Мақтабгача таълим журнали*: Vol. 3 No. Preschool education journal (2021)

Gulnoza Xasanova, [МАКТАБГАЧА TA'LIM TASHKILOTIDA BOLA NUTQINI RIVOJLANTIRISHNING MAZMUNI](#), *Мақтабгача таълим журнали*: Vol. 3 No. Preschool education journal (2021)

Gulnoza Xasanova, [МАКТАБГАЧА TARBIYA YOSHDAGI BOLALARGA AQLIY TARBIYA BERISHNI TO'G'RI TASHKIL ETISHNING MAZMUNI](#), *Мақтабгача таълим журнали*: Vol. 4 No. Preschool education journal (2021): [Preschool education journal](#)

Xasanova, G. (2021). «ПЕДАГОГ ТАРБИЯЧИЛАРНИНГ ИЛМІЙ ПЕДАГОГИК КОМПІТЕНТЛІКНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ

МАЗМУНИ». *Мактабгача таълим журнали*, 1(1). Retrieved from <https://ruslit.jspi.uz/index.php/presedu/article/view/2809>